



XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - oktabr

VI-44-95-10-139-K/22

Qibray tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213- IV -sonli hamda 2022-yil 26-yanvardagi “Tuman (shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-302- IV -sonli, shuningdek 2022-yil 30-iyundagi KQ-377- IV -sonli qarorlariga asosan, hududlarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga ko‘ra “g‘olib” takliflarni tanlab olish hamda ularga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli hamda 2022-yil 26-yanvardagi “Tuman (shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-302-IV-sonli, shuningdek 2022-yil 30-iyundagi KQ-377-IV-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil qilib borish zarurligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ–5072-sonli qaroriga muvofiq, Qibray tumani fuqarolarini qiynab kelayotgan muammolar bo‘yicha takliflarni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetning va mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hamda iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus g‘azna hisobvarag‘ida 2022-yil 2-mavsum uchun jami

4 508,7 mln. so‘m mablag‘ shakllantirilgan.

Moliya vazirligi tomonidan ochilgan Ochiq budjet (**ochiq budjet.uz**) portalida 2022-yilning 15-iyulidan 3-avgustiga qadar bo‘lgan davrda tuman fuqarolari tomonidan jami 109 797,0 mln.so‘mlik 168 ta taklif kiritilganligi va takliflar Ishchi komissiya a‘zolari tomonidan loyiha qiymatlari qayta ko‘rib chiqilib, jami 40 ta taklif belgilangan tartibga zid ekanligi sababli rad etilgan hamda rad etilgan takliflar bo‘yicha taklif bergan shaxsning shaxsiy kabinetiga rad etishning asoslangan sabablari to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan.

Tanlab olingan 84 614,0 mln.so‘mlik 128 ta takliflar mas‘ullar tomonidan qayta hisob-kitoblar qilinib, loyihalar miqdori 88 550,0 mln. so‘m qilib belgilangan holda, jamoatchilik o‘rtasida yigirma besh kun davomida ovoz berish jarayoniga ruxsat berilgan va ovoz berish jarayoni joriy yilning 24-avgustidan 17-sentabrigha qadar etib belgilangan edi.

Fuqarolar tomonidan ovoz berish jarayoniga ruxsat etilgan, 128 ta taklifdan 94 tasiga jami **48 736** ta ovoz berildi.

Ovoz berish yakuniga ko‘ra, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida g‘oliblarni aniqlash jamg‘armada shakllangan mablag‘ doirasida “ENG KO‘P” ovoz olganlardan boshlab pastga qarab saralanganda 5 ta taklif “g‘olib” deb topilib, ushbu takliflarning qiymati **4 508,7 mln.** so‘mni tashkil etmoqda.

G‘olib takliflarni moliyalashtirish tegishlicha Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan manzilli ro‘yxat asosida amalga oshirilishi belgilangan. (*manzilli ro‘yxat ilova qilinadi*).

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a‘zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilgan holda, Xalq deputatlari Qibray tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman moliya bo‘limi rahbari I.Xolmurodovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli hamda 2022-yil 26-yanvardagi “Tuman (shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-302- IV -sonli, shuningdek 2022-yil 30-iyundagi KQ-377-IV-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan hisoboti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida g‘oliblarni aniqlashda “ENG KO‘P” ovoz olgan 5 ta taklif “g‘olib” deb topilib, ushbu takliflarning qiymati **4 508,7 mln. so‘m** miqdorida Manzilli ro‘yxat asosida tasdiqlansin va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining 2021 yil 6 maydagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI/XXVII-XIII-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, monitoringini olib borish bo‘yicha tasdiklangan ishchi guruhi va Xalq deputatlari tuman kengashining barcha doimiy komissiya raislari bilan 2023 yil 1-2-mavsumlarda fuqarolar tomonidan **Openbudget.uz** portaliga joylashtirilgan takliflarni o‘rganib chiqqan xolda yakuniy hulosalarini berish vazifasi yuklatilsin.

Belgilab qo‘yilsinki,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmasin.

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman budjeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlansin.

4. Tasdiqlangan Manzilli ro‘yxat asosida :

- Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (**I.Xolmurodov**) tadbirlarni moliyalashtirilishni ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha 401722... bo‘lgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlar ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (**A.Ilesbaeva**) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta hujjatlari

asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (**T.Tashxodjaev**) va tuman "Qibray sadosi" gazetasi (**G.Axmedova**) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari (**J.Tulyaganov**) buyurtmachi tashkilotlar bilan birgalikda, belgilangan tartibda qurilish va ta'mirlashga oid tender tanlovlarni tezkorlikda odilona o'tkazilishini tashkillashtirsin.

8. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash va nazorat qilish ishchi komissiya a'zolari hamda tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi M.Mirjalilov zimamasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Mirkasimov

Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-44-95-10-139-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qibray tumani bo'yicha 2022-yil 2-mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarini moliyalashtirish bo'yicha					MANZILLI RO'YXAT						G'olib taklif ma'lumotlari					
					№	Taklif ID raqami	Qisqa mazmuni			To'plangan ovozlari soni	Amalgos oshirishning aniqlangan qiymati	Huquqatda ajratilgan*	Moliyalashtirish manbasi (F.T.I. qo'shimcha manba, budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot		
"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'					24 547	4 680 000,00	4 496 125,00	xxx	xxx							
1	1860600020	Yangi-yo'l mahallasi, Tinchlik ko'chasi uzunligi 1000 metr eni 4 metr (4000 m.kv), Navbahor ko'chasi uzunligi - 800 metr eni 4 metr (3200 m.kv) bo'lgan ko'chalarga asfalt yotqazish			5340	1 080 000,00	1 093 500,00	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi							
2	1860600018	Tuman Sanitariya epidemiologiya osonishlik va jamoat salomatligi bo'limining jami uzunligi 180 metr bo'lgan tashqi devorini ta'mirlash hamda tashkilot binosi joylashgan hududni obodonlashtirish (hovini beton qoplamasi bilan qoplash) ishlatib olib borilishi zarur. Kutilayotgan natija muassasaga ta'drif buyuruvchi fuqarolarga va tashkilotda ish faoliyatini olib borayotgan ishchi xodimlarga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.			5206	500 000,00	500 000,00	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Sanitariya epidemiologiya osonishlik va jamoat salomatligi bo'limi							
3	1860600003	Bunyodkor MFYning Turon-4 ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 175 metr, Tayanch ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 150 metr, Ufq ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 140 metr, Fitrat ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 130 metr, Tinchlik ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 150 metr, Beruniy ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 220 metr, Limonchilik ko'chasi eni 5 metr, uzunligi 220 metr ichki ko'chalarni jami 1115 metr ta'mirlab-qismlarini asfalt qilib zarur.			5070	850 000,00	752 625,00	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi							
4	1860600007	Qibray tumani Fidokor MFYning jami 8500 kv.m uzunligi 2100 metr ichki ko'chalarni asfalt qoplamasi (asfaltlashtirish) bilan qoplash zarur. Sayoxat ko'chasi 950 metr, Xisorak ko'chasi 600 metr, Tash GRES tupik ko'chasi 450 metr, Omad ko'chasi 100 metr.			5017	1 150 000,00	1 150 000,00	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi							
5	1860600125	Nurafshon maxallasi (zamena masoladan ichkariga kirganda) ichkidagi ko'chalarni oqova suv tizimini (kanalizatsiya) bilan ta'mirlash. Mana bir necha yillardan beri mahalla aholisi ushbu muammoldan aziyat chekib kelmoqda.			3914	500 000,00	1 000 000,00	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman xokimligi							
Tashabbusi budget uchun ajratilgan mablag'					4 588 768,77			xxx	xxx							
Tejaslangan mablag'					12 643,77			xxx	xxx							